

**AYBGA IQROR BO‘LISH INSTITUTINING JINOYAT PROTSESSIDA  
HUQUQIY TABIATI: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA YAPONIYA  
QONUNCHILIGI QIYOSIY TAHLILI**

**Shaxobiddinova E‘zoza Isomiddin qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

*Xalqaro huquq fakulteti 2-bosqich talabasi*

*E-Mail: [ezozashaxobiddinova@gmail.com](mailto:ezozashaxobiddinova@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy ishda O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya jinoyat-protsessual qonunchiligida aybga iqrор bo‘lish institutining huquqiy tabiati, uning daliliy kuchi hamda baholash mezonlari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqrорlikning mustaqil dalil sifatidagi o‘rni, uning boshqa dalillar bilan tasdiqlanishi zarurligi hamda protsessual kafolatlar masalalari o‘rganiladi. Shuningdek, Yaponiya tajribasida keng qo‘llanilayotgan audio va video qayd etish tizimi va inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari tahlil qilinib, O‘zbekiston jinoyat protsessini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Aybga iqrор bo‘lish, jinoyat protsessi, dalillar tizimi, aybsizlik prezumpsiyasi, qiyosiy-huquqiy tahlil, Yaponiya Jinoyat-protsessual kodeksi, O‘zbekiston Jinoyat-protsessual kodeksi, protsessual kafolatlar, videoyozuv tizimi, inson huquqlari.*

**Аннотация:** *В данной научной работе проводится сравнительно-правовой анализ института признания вины в уголовно-процессуальном законодательстве Республики Узбекистан и Японии. Исследуются правовая природа признания вины, его доказательственное значение и критерии оценки. Особое внимание уделяется необходимости подтверждения признательных показаний другими доказательствами и процессуальным гарантиям. Также рассматривается опыт Японии по внедрению систем аудио- и видеозаписи следственных действий и защите прав человека, на основе которого предложены научно обоснованные рекомендации по совершенствованию уголовного процесса Узбекистана.*

**Ключевые слова:** *Признание вины, уголовный процесс, система доказательств, презумпция невиновности, сравнительно-правовой анализ, Уголовно-процессуальный кодекс Японии, Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан, процессуальные гарантии, система видеозаписи, права человека.*

**Abstract:** *This scientific work provides a comparative legal analysis of the institution of confession in the criminal procedural legislation of the Republic of Uzbekistan and Japan. It examines the legal nature of confession, its evidentiary value, and evaluation criteria. The study focuses on the necessity of corroborating confessions with other evidence and ensuring procedural safeguards. It also analyzes Japan’s experience in implementing audio and video recording systems and protecting human rights, and develops scientifically grounded recommendations for improving the criminal procedure system of Uzbekistan.*

**Keywords:** *Confession of guilt, criminal procedure, system of evidence, presumption of innocence, comparative legal analysis, Japanese Code of Criminal Procedure, Criminal Procedure Code of Uzbekistan, procedural safeguards, video recording system, human rights.*

Jinoyat protsessi huquqi tizimida aybga iqrор bo‘lish instituti eng muhim va shu bilan birga eng murakkab protsessual institutlardan biri hisoblanadi. Mazkur institut jinoyat ishlarini tergov qilish va sudda ko‘rib chiqish jarayonida dalillarni baholashning markaziy elementlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Tarixan ko‘plab huquqiy tizimlarda iqrорlik “dalillarning malikasi” sifatida yuqori darajada baholangan bo‘lsa-da, zamonaviy demokratik huquqiy davlatlarda ushbu yondashuv qayta ko‘rib chiqilib, uning ishonchligi va boshqa dalillar bilan mustahkamlanishi zarurligi e‘tirof etilmoqda. Ushbu qiyosiy-huquqiy tahlil O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya jinoyat-protsessual qonunchiligida aybga iqrор bo‘lish institutining protsessual tabiati, uning daliliy kuchi hamda baholash mezonlarini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Xususan, Yaponiya Jinoyat-protsessual kodeksining 319-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining tegishli normalari asosida iqrорlikning sud amaliyotidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tahlil davomida bosim ostida olingan ko‘rsatmalarning huquqiy oqibatlari, inson huquqlariga ta’siri hamda noqonuniy tergov usullarining oldini olish masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, Yaponiya tajribasida keng qo‘llanilayotgan audio va video qayd etish tizimining samaradorligi o‘rganilib, ushbu tajribani O‘zbekiston jinoyat-protsessual tizimiga implementatsiya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – aybga iqrор bo‘lish institutini qiyosiy tahlil qilish orqali O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish, inson huquqlarini yanada samarali himoya qilish hamda sud-tergov amaliyotining shaffofligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

### **1. Aybga iqrор bo‘lish institutining jinoyat protsessidagi huquqiy tabiati**

Jinoyat protsessi huquqida aybga iqrор bo‘lish instituti dalillar tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu institutning huquqiy tabiati shundan iboratki, u gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining o‘ziga qo‘yilgan ayblovni tan olishi shaklida namoyon bo‘ladi. Biroq zamonaviy jinoyat protsessual huquqida iqrорlik mutlaq va yakuniy dalil sifatida emas, balki boshqa dalillar bilan birgalikda baholanishi lozim bo‘lgan protsessual manba sifatida qaraladi.

Aybga iqrорlikning huquqiy tabiati ikki asosiy jihat bilan tavsiflanadi. Birinchidan, u subyektiv xususiyatga ega bo‘lib, shaxsning ichki ruhiy-irodaviy holatini ifodalaydi. Ikkinchidan, u protsessual ahamiyatga ega bo‘lib, jinoyat ishini hal etishda dalil sifatida qo‘llaniladi. Shu sababli ham uning ishonchligi doimo boshqa dalillar bilan solishtirilgan holda aniqlanishi zarur.

Zamonaviy demokratik huquq tizimlarida, xususan O‘zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual huquqida ham, aybga iqrорlik mustaqil va yetarli dalil sifatida emas, balki

tekshirilishi lozim bo'lgan dalil sifatida baholanadi. Bu yondashuv aybsizlik prezumpsiyasi prinsipining amaliy ifodasi hisoblanadi.

Yaponiya jinoyat-protsessual tizimida ham aybga iqrор bo'lish instituti alohida o'rin egallaydi. Yaponiya Jinoyat-protsessual kodeksining 319-moddasiga ko'ra, faqat iqrорlikning o'zi asosida hukm chiqarilishi mumkin emas. Sud har bir holatda jinoyatning obyektiv tomonini tasdiqlovchi qo'shimcha dalillar mavjudligini tekshirishi shart. Bu norma iqrорlikka ortiqcha tayanishning oldini olishga qaratilgan muhim kafolat hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, aybga iqrорlik instituti ikki davlat huquq tizimida ham o'xshash yondashuvga ega bo'lsa-da, amaliyotda uning qo'llanish darajasi va protsessual kafolatlar turlicha namoyon bo'ladi.

## **2. Yaponiya jinoyat-protsessual tizimida aybga iqrор bo'lish institutining huquqiy tartibga solinishi**

Yaponiya jinoyat-protsessual tizimi o'zining rivojlangan demokratik tamoyillari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, aybga iqrор bo'lish institutiga nisbatan ehtiyotkor yondashuv shakllantirilgan bo'lib, bu tizimda iqrорlik hech qachon yagona va yetarli dalil sifatida qabul qilinmaydi.

Yaponiya Jinoyat-protsessual kodeksi (Keiji Sosho-ho)ning 319-moddasiga muvofiq, sud faqat ayblanuvchining iqrорligiga asoslanib hukm chiqara olmaydi. Ushbu norma jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda obyektiv haqiqatni aniqlash prinsipini mustahkamlaydi va faqat subyektiv ko'rsatmaga tayanib xulosa chiqarishni cheklaydi. Shunga ko'ra, iqrорlik har doim boshqa ishonchli va mustaqil dalillar bilan tasdiqlanishi shart. Bundan tashqari, Yaponiya Konstitutsiyasining 38-moddasi ham aybga iqrорlik masalasida muhim kafolatni belgilaydi. Unga ko'ra, qiynoq, tahdid yoki noqonuniy bosim natijasida olingan har qanday iqrорlik sudda dalil sifatida qabul qilinmaydi. Bu qoida shaxsning erkin ifoda etilgan irodasini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, jinoyat protsessida inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, Yaponiya amaliyotida tarixan "garovdagi adolat" (hostage justice) deb ataluvchi muammo ham mavjud bo'lgan. Ushbu holatlarda gumon qilinuvchilar uzoq muddat davomida hibsdan saqlanib, psixologik bosim ostida iqrорlik berishga majbur qilingan. Natijada ayrim hollarda noto'g'ri hukmlar chiqarilgan va keyinchalik qayta ko'rib chiqish jarayonida aybsiz shaxslar oqlangan. Mazkur muammolar Yaponiya huquq tizimini isloh qilishga turtki bo'lgan muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, so'nggi yillarda tergov harakatlarini audio va video qayd etish tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ushbu tizimning asosiy maqsadi — tergov jarayonida shaffoflikni ta'minlash, noqonuniy bosim va majburlov holatlarini oldini olish hamda dalillarning ishonchligini oshirishdan iboratdir. Shu sababli Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, aybga iqrорlik institutini huquqiy jihatdan to'g'ri tartibga solish jinoyat protsessining adolatli va inson huquqlariga mos bo'lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

## **3. O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessida aybga iqrор bo'lish institutining huquqiy tartibi va amaliy holati**

O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual huquqida aybga iqrор bo'lish instituti dalillar tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Jinoyat-protsessual

kodeksga muvofiq, jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlash jarayonida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining ko'rsatmalari boshqa dalillar bilan bir qatorda baholanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasiga ko'ra, dalillar tizimiga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va jabrlanuvchining ko'rsatmalari, ekspert xulosasi, ashyoviy dalillar hamda boshqa protsessual manbalar kiradi. Ushbu norma jinoyat protsessida dalillarni keng va kompleks yondashuv asosida baholash zarurligini belgilaydi. Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksining 112-moddasida ayblanuvchining iqrorigi alohida tartibda ko'rib chiqiladi va u boshqa mavjud dalillar bilan majburiy ravishda tekshirilishi lozimligi qayd etilgan. Bu qoida nazariy jihatdan aybga iqrorlikni mustaqil va yetarli dalil sifatida tan olmaslik tamoyiliga asoslangan bo'lib, aybsizlik prezumpsiyasi prinsipini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda aybga iqror bo'lish instituti boshqa dalillarga nisbatan ustun qo'yilishi yoki ishning asosiy isboti sifatida baholanishi holatlari uchrab turadi. Bu esa jinoyat protsessining obyektivligi va xolisligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, tergov jarayonida protsessual kafolatlarning to'liq ta'minlanmasligi, advokat ishtirokining yetarli darajada bo'lmasligi yoki ko'rsatmalarni olish jarayonida psixologik bosim ehtimoli mavjudligi amaliy muammolar sifatida qayd etiladi. Bunday holatlar natijasida ayrim iqrorliklar haqiqiy ixtiyoriy ifoda emas, balki tashqi ta'sir ostida shakllangan bo'lishi xavfi yuzaga keladi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston jinoyat protsessual tizimida aybga iqrorlik instituti qonuniy jihatdan tartibga solingan bo'lsa-da, uning amaliy qo'llanilishida qo'shimcha kafolatlarni kuchaytirish zarurati mavjudligi kuzatiladi.

#### **4. O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya jinoyat protsessida aybga iqror bo'lish institutining qiyosiy-huquqiy tahlili**

O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya jinoyat protsessual tizimlarida aybga iqror bo'lish instituti umumiy maqsad — jinoyat ishlarida haqiqatni aniqlashga xizmat qilsa-da, uning huquqiy tabiati, baholash mezonlari va amaliy qo'llanilishi bir qator muhim jihatlarda farqlanadi. Yaponiya jinoyat protsessual tizimida aybga iqror bo'lish qat'iy ravishda yordamchi dalil sifatida qaraladi. Yaponiya Jinoyat-protsessual kodeksining 319-moddasiga ko'ra, faqat iqrorlikning o'zi asosida hukm chiqarish taqiqlanadi. Sud har bir holatda jinoyatning obyektiv tomonini tasdiqlovchi mustaqil dalillar mavjudligini tekshirishi shart. Bu qoida jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda yuqori darajadagi isbotlash standartini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida esa Jinoyat-protsessual kodeks normalariga muvofiq, aybga iqror bo'lish dalillar tizimining tarkibiy qismi sifatida tan olinadi va u boshqa dalillar bilan birga baholanadi. Biroq, amaliyotda ayrim hollarda iqrorlikka nisbatan yuqori ishonch berilishi kuzatiladi, bu esa isbotlash jarayonida nomutanosiblikka olib kelishi mumkin.

Yaponiya tajribasida yana bir muhim jihat — protsessual kafolatlarning kuchli tizimidir. Xususan, Konstitutsiyaning 38-moddasi va tergov harakatlarini videoyozuv orqali qayd etish amaliyoti iqrorlikning ixtiyoriyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa

noqonuniy bosim, tahdid yoki psixologik majburluv ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

O‘zbekistonda esa so‘nggi yillarda tergov jarayonlarida inson huquqlarini himoya qilish va protsessual kafolatlarni kuchaytirish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, videoyozuv tizimining to‘liq va majburiy joriy etilishi hali to‘liq shakllanmagan. Bu esa qiyosiy jihatdan Yaponiya tajribasidan orqada qolayotgan jihatlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Shuningdek, Yaponiya huquq tizimida iqrorlikni tasdiqlovchi mustaqil dalillar (ekspertiza, biologik izlar, guvoh ko‘rsatmalari)ga qat’iy talab qo‘yilishi jinoyat protsessining ishonchligini oshiradi. O‘zbekiston tizimida esa ushbu yondashuv mavjud bo‘lsa-da, uni amaliyotda yanada kuchaytirish zarurati seziladi. Umuman olganda, qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Yaponiya tizimi protsessual kafolatlar va dalillarni baholashda qat’iyroq standartlarga ega bo‘lsa, O‘zbekiston tizimi esa rivojlanish bosqichida bo‘lib, islohotlar orqali ushbu sohada yanada takomillashtirilishi mumkin.

### 5. Aybga iqror bo‘lish institutini qo‘llashdagi muammolar va tanqidiy tahlil

Aybga iqror bo‘lish institutining jinoyat protsessida muhim o‘rin egallashiga qaramasdan, uning amaliy qo‘llanilishida bir qator muammolar va bahsli jihatlar mavjud. Ushbu muammolar nafaqat O‘zbekiston Respublikasi, balki qiyosiy tahlil qilingan Yaponiya huquq tizimida ham turli darajada kuzatilgan. Eng asosiy muammolardan biri — iqrorlikning haqiqiy ixtiyoriylik asosida olinganligini aniqlash masalasidir. Tergov jarayonida shaxsning psixologik holati, uzoq davom etgan so‘roq, charchoq yoki qo‘rquv kabi omillar uning ko‘rsatmalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Natijada, shaxs o‘zi sodir etmagan jinoyatni ham tan olishi ehtimoli yuzaga keladi. Ikkinchi muhim muammo — protsessual kafolatlarning yetarli darajada ta’minlanmasligidir. Ayrim hollarda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi advokat ishtirokisiz so‘roq qilinishi yoki uning huquqlari to‘liq tushuntirilmasligi kuzatiladi. Bu esa olingan iqrorlikning ishonchligiga shubha tug‘diradi va keyingi bosqichlarda protsessual nizolarni keltirib chiqaradi. Uchinchi muammo — iqrorlikka haddan tashqari tayanish tendensiyasidir. Amaliyotda ayrim holatlarda iqrorlik boshqa dalillar bilan yetarli darajada mustahkamlanmasdan, asosiy isbot vositasi sifatida baholanishi mumkin. Bu esa jinoyat ishlarini hal qilishda subyektiv yondashuv xavfini oshiradi.

Yaponiya tajribasida ham shunga o‘xshash muammolar tarixan kuzatilgan bo‘lib, “garovdagi adolat” tizimi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Uzoq muddatli hibs, kuchli psixologik bosim va tergovning bir tomonlama yo‘nalishi natijasida noto‘g‘ri iqrorliklar olingan va ayrim hollarda adolatsiz hukmlar chiqarilgan. Bu holatlar keyinchalik huquqiy islohotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirgan. Shuningdek, yana bir muhim muammo — dalillarni kompleks baholash prinsipining yetarli darajada qo‘llanilmasligidir. Ba’zi hollarda iqrorlikning o‘zi yetarli deb qaralib, ekspertiza xulosalari, ashyoviy dalillar yoki guvoh ko‘rsatmalari bilan to‘liq solishtirilmasligi mumkin. Bu esa jinoyat protsessining obyektivligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda, ushbu muammolar aybga iqror bo‘lish institutini yanada takomillashtirish,

protsessual kafolatlarni kuchaytirish hamda dalillarni baholashda kompleks yondashuvni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, aybga iqrор bo'lish instituti jinoyat protsessida muhim daliliy ahamiyatga ega bo'lsa-da, uni baholash va qo'llashda ehtiyotkorlik hamda kompleks yondashuv talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya jinoyat-protsessual tizimlari ushbu institutni tartibga solishda umumiy maqsadga ega bo'lib, u jinoyat ishlarida haqiqatni aniqlash va adolatli sudlovni ta'minlashga qaratilgan.

Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, aybga iqrор bo'lish hech qachon mustaqil va yetarli dalil sifatida qabul qilinmasligi, balki boshqa obyektiv dalillar bilan majburiy ravishda tasdiqlanishi lozim. Shuningdek, tergov harakatlarini audio va video qayd etish tizimining joriy etilishi protsessual shaffoflikni oshirishga, inson huquqlarini himoya qilishga hamda noqonuniy bosimlarning oldini olishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual tizimida ham aybga iqrорlik boshqa dalillar bilan birgalikda baholanadi va qonuniy jihatdan aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi mustahkamlangan. Biroq amaliyotda ayrim holatlarda iqrорlikka ortiqcha tayanish, protsessual kafolatlarning to'liq ta'minlanmasligi hamda dalillarni kompleks tekshirish mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi kabi muammolar mavjudligi kuzatiladi. Shu sababli, Yaponiya tajribasini o'rganish asosida O'zbekiston jinoyat protsessual tizimini yanada takomillashtirish, xususan, tergov jarayonlarida majburiy audio-video qayd etish tizimini keng joriy etish, "psixologik bosim" tushunchasini normativ darajada mustahkamlash hamda dalillarni baholashda sud nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot aybga iqrор bo'lish institutining huquqiy tabiatini chuqurroq anglash, uning amaliy qo'llanilishidagi muammolarni aniqlash hamda xalqaro tajriba asosida ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida jinoyat protsessining adolatli, shaffof va inson huquqlariga mos tizim sifatida rivojlanishiga zamin yaratadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.  
<https://lex.uz/docs/111460>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.  
<https://lex.uz/docs/6445145>
3. Code of Criminal Procedure of Japan (Keiji Sosho-ho), Article 319.  
<https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/2056>
4. Constitution of Japan, Article 38.  
[https://www.shugiin.go.jp/internet/itdb\\_english.nsf/html/statics/en](https://www.shugiin.go.jp/internet/itdb_english.nsf/html/statics/en)
5. United Nations. International Covenant on Civil and Political Rights (ICCPR), 1966.

<https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>

- Rustamboyev M.X. Jinoyat protsessi. — Toshkent, 2021.
6. Mirazov D. Inson huquqlari va jinoyat protsessi. — Toshkent, 2022.
  7. Ashurov A. Jinoyat protsessual huquqi (umumiy qism). — Toshkent, 2020.
  8. Kadota H. Japanese Criminal Procedure and Human Rights Protection. — Tokyo, 2019.
  9. Constitution of Japan, Article 38.  
[https://www.shugiin.go.jp/internet/itdb\\_english.nsf/html/statics/en](https://www.shugiin.go.jp/internet/itdb_english.nsf/html/statics/en)
  10. Japanese Code of Criminal Procedure  
<https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/2056/en>

